



SOME THOUGHTS ON THE HISTORY OF SUGAR TRADE AND CONSUMPTION IN TURAN

Alisher M. Egamberdiyev

Master's student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: sugar, Turan, trade, India, sugar factories, factory, beets, Ukraine.

Received: 31.05.22

Accepted: 02.06.22

Published: 04.06.22

Abstract: The article analyzes some historical data on the sale and consumption of sugar in the Turan region from ancient times to the end of the twentieth century. There is information about the consumption of sugar in Turan in the pre-Islamic period, the import of sugar from India to Turan by trade caravans, and sugar factories built during the reign of Amir Temur and the Timurids. Special attention is paid to the construction of the first sugar factories in the country and the history of sugar production during the colonial period.

TURONDA SHAKAR SAVDOSI VA ISTE'MOLI TARIXIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Alisher M. Egamberdiyev

Magistratura talabasi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: shakar, Turon, savdo-sotiq, Hindiston, shakar korxonalari, zavod, lavlagi, Ukraina.

Annotatsiya: Maqolada Turon hududida qadimgi davrdan boshlab XX asr oxirigacha bo'lgan davrda shakar savdosi va iste'moli bilan bog'liq ayrim tarixiy ma'lumotlar tahlil etilgan. Islomgacha bo'lgan davrda Turondagi shakar iste'moli, savdo karvonlari orqali Hindistondan Turonga shakar olib kelingani, Amir Temur va temuriylar davrida qurilgan shakar korxonalari haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, o'lkada dastlabki shakar zavodlarining bunyod etilishi, mustamlakachilik davrida shakar ishlab

chiqarish tarixi masalasiga ham alohida ahamiyat qaratilgan.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ИСТОРИИ ТОРГОВЛИ И ПОТРЕБЛЕНИЯ САХАРА В ТУРАНЕ

Алишер М. Эгамбердиев

студент магистратуры

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: сахар, Туран, торговля, Индия, сахарные заводы, завод, свеклы, Украина.

Аннотация: В статье анализируются некоторые исторические данные о продаже и потреблении сахара в Туранском регионе с древнейших времен до конца XX века. Имеются сведения о потреблении сахара в Туране в доисламский период, о ввозе сахара из Индии в Туран торговыми караванами, о сахарных заводах, построенных в период правления Амира Темура и Темуридов. Особое внимание уделено строительству первых сахарных заводов в стране и истории производства сахара в колониальный период.

KIRISH

Qadimgi davrlardan boshlab tashqi savdo munosabatlari natijasida Turon bozorlariga turli xil mahsulotlar olib kelingan. Bunday mahsulotlar orasida noyob va yuqori qiymatga baholanganlari ham ko'p bo'lgan. Ana shunday mahsulotlardan biri shakar hisoblanadi. Tarixiy manbalardan ma'lumki, shakarqamishdan shakar olish insoniyatga qadim zamonlardan beri ma'lum bo'lgan. Shakarni hunarmand-qandolatchilar tayyorlaganlar. U bir necha ming yillar davomida faqat boylar, o'ziga to'q zodagonlar iste'mol qila oladigan mahsulot bo'lgan. Tabiblar uni kamyob dorilarni tayyorlashda ishlatishgan. Kundalik shakar iste'moli uchun oddiy aholining xarid quvvati yetmagan. Shakarning vatani Hindiston ekani, ajdodlarimiz bu o'lka bilan qadim zamonlardan beri savdo-sotiq aloqalarini olib borganini inobatga olsak, yurtimizda shakar iste'moli bir necha ming yillar oldin boshlangani ayon bo'ladi.

ASOSIY QISM

Tarixchi Baxtiyor Isoqovning qayd etishicha, islomga qadar bo'lgan Navro'z bayramining oddiy xalqqa tegishli urf-odatlarida ham shakardan keng foydalanilgan. O'sha davrlarda Navro'z kuni odamlar hayotingiz har doim shirin bo'lsin, degan ma'noda bir-birlariga shakar, shirinliklar hadya qilishgan [1; 339–340-b.]. Abu Rayhon Beruniy bergan muhim tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, «Navro'zning oltinchi kunida, ya'ni «Katta Navro'z» kuni tongda... gapirishidan oldin

shakar tatib, o'ziga zaytun surtgan kishilardan ana shu yilning hammasida turli balo daf etiladi». Zardushtiylik e'tiqodidagi kishilar ushbu aqidaga qat'iy amal qilganlar. Rivoyatlardan birida odamlarning bir-birlariga shakarni hadya etishlari va uni bayram kunlari maxsus tatib ko'rishlari sababli ham shakar aynan Navro'z kunida paydo bo'lgan, deyiladi [2; 255–256-b.]. Beruniyning ushbu ma'lumotlaridan shakarning miloddan oldingi va milodiy birinchi mingyilliklarda ham iste'mol qilingani ayon bo'ladi.

Shakar iste'moli bilan bog'liq yana bir ma'lumot XV asrga oid manbada uchraydi. 1404-yilda Amir Temur saroyiga tashrif buyurgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo o'z kundaliklarida Sohibqiron davriga oid qiziqarli ma'lumotlarni qayd etadi. Jumladan, Samarqandda mehmon bo'lgan Klavixo shu yilning 9-oktyabr kuni Amir Temurning katta o'g'li Mironshohning xotini Xonzoda begim uyushtirgan bazmga taklif etiladi. Shunda sayyohning e'tiborini ot sutiga shakar solib tayyorlangan ichimlik – bo'za tortadi [3; 172-b.]. Amir Temur Samarqandda qamishdan shakar olishni yo'lga qo'ygan bo'lsa-da, bu davrda ham Turonga Hindistondan shakar olib kelish davom etgan. Bundan tashqari, Shohrux hukmronligi davrida Eron janubidagi Yazdda mo'l-ko'l shakar ishlab chiqarilar, bir necha shakar korxonalari bor edi. Masalan, 1427-yilning o'zida amir Chaqmoq juda katta shakar korxonasini qurib bitirishi bilanoq shaharning atqli boylaridan Xoja Shahobiddin shunday bir shakar korxonasini bunyod ettirgani haqidagi ma'lumot manbalarda saqlanib qolgan [4; 137-b.].

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida ham Kobulga «Hindistondan qalin mato, oq kiyim-kechak, qand, novvot, shakar va dorivorlar» keltirilganligi qayd etilgan [5; 106-b.]. Bundan tashqari, Bobur o'zining Odinapurdagi Bog'i Vafosini yanada xushmanzara qilish maqsadida Hindistondan palma va shakarqamish (nayshakar) keltirib ektirgan. Badaxshon va Buxoro bog'lariga ham shakarqamish nihollaridan yuborgan [6; 20-b.]. Bu nihollar faqat xushmanzara o'simlik sifatida emas, balki shakarqamishdan shakar olish uchun ham yuborilgan bo'lishi ehtimol.

XVIII asrning 80–90-yillarida Rossiyadan Buxoro amirligiga boshqa mahsulotlar qatori shakar ham olib kelingan. Adabiyotlarda qayd etilishicha, 1867-yilning o'zida Rossiyadan Turonga 136 ming rubllik shakar keltirilgan [7; 49-b.]. XIX asr o'rtalarida Turonga Erondan ham shakar olib kelish boshlangan. Uning bir pud (16,38 kilogramm)i Buxoroda 3 tildan sotilgan va butun Turon bozorlariga olib ketilgan. XIX asr o'rtalarida Turonning turli hududlaridan qozoq ovullariga kelgan savdogarlar 5 funt (2 kilogramm-u 47,5 gramm) shakarni 3 ta qo'yga baholaganlar [8; 63-b.]. Shu asrning 80-yillari boshlarida Qarshi bozorlarida shakarning 1 pudi 8 rubl (yoki 9 rubl 40 tiyin)dan, buyurtma asosida Buxorodan keltirilib, bir kunda 20 pudgacha sotilgan. O'sha vaqtda tuzning 1 pudini 10 tiyin (yoki 12 tiyin)dan sotib olish mumkin edi [9; 77-

b.]. Buxoro uchun olib kelinadigan rus tovarlari aholi talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib maxsus tayyorlangan. Masalan, shakar asosan tozalanmagan va 5 fut og'irlikda qadoqlangan holda keltirilgan. Shu tariqa, Buxoro amirligi bozorlarida Rossiyadan keltirilgan 1 pud shakar 40 tangaga sotilgan. Amirlik bozorlariga inglizlar olib kelgan 1 botmon (taqriban 131 kilogramm) shakar esa 16 tillaga pullangan.

Turonda so'nggi mustamlakachilik davridagi birinchi shakar zavodi XX asr boshlarida ish boshlagan. 1893-yilda Rossiya Harbiy akademiyasi professori, injener-polkovnik Viktor Ivanov Toshkent viloyatida shakar zavodi qurish maqsadida «Turkiston qishloq xo'jaligi va sanoat shirkati»ni tuzdi. Shirkat Eski Qovunchi qishlog'i (hozirgi Yangiyo'l shahri) atrofida 200 gektar yer olib, hosildan olingan daromadga shakar zavodi qurishni rejalashtirdi. Qand-shakar sanoati xom ashyosi hisoblangan qand lavlagi yetishtirishni mahalliy aholiga o'rgatish uchun Ukrainadan yuzga yaqin lavlagikorlar, Farg'ona vodiysidan ellikka yaqin suvchilar jalb etildi. Zavodning to'liq ishga tushirilishi uchun o'n yil kerak bo'ldi. 1903-yilda germaniyalik mutaxassislar yordamida Turkiston general-gubernatorligida yagona bo'lgan bu shakar zavodida ilk marotaba oq shakar olishga erishildi [10; 277-b.].

Ikkinchi jahon urushi yillarida Ukrainadan uchta shakar zavodi O'zbekistonning ikkita viloyatiga ko'chirib keltirildi. Bu shakar zavodlari Samarqand viloyatidagi Kattaqo'rg'on va Zirabuloq hamda Farg'ona viloyatidagi Qo'qonga o'rnatildi. Mazkur evakuatsiya qilingan uch zavod hamda Yangiyo'l zavodini qo'shib hisoblaganda jami to'rtta zavod har yili 200 ming tonnaga yaqin shakar ishlab chiqardi. Yaratilgan mahsulot SSSR aholisi va harakatdagi armiya qismlarini shakar bilan ta'minlab turdi. Biroq O'zbekistonda paxta yakkahokimligi tufayli 1954–1955-yillarda shakar ishlab chiqarish 4 marta kamayib, 50 ming tonnaga tushib qoldi. Markazning qarori bilan 1955-yilda O'zbekistondagi shakar zavodlarining barchasi Ukrainaga ko'chirib olib ketildi [11; 597-b.]. Shundan boshlab aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan shakarning 100 foizi qo'shni respublikalardan olib kelina boshlandi. Mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng O'zbekiston yana o'zining shakar ishlab chiqarish zavodlariga ega bo'ldi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Turon xalqlarining qadimgi savdo aloqalari natijasida bu hududda yashagan aholi qadimdanoq shakar iste'mol qilib kelgan. Beruniyning qayd etishicha, rivoyatlarda shakarning Navro'z kuni yaratilgani hikoya qilingan. Shakar Turonga asosan Hindistondan keltirilgan. Amir Temur o'z saltanatining poytaxti Samarqandda shakar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan. Keyingi temuriy hukmdorlar davrida ham ko'plab yirik shakar korxonalari faoliyat boshlagan. Bobur Hindistonning shakarqamishlari nihollarini Badaxshon va Buxoro bog'lariga yuborgan edi. XVIII–XIX asrlarda Turonga Rossiya, Hindiston, Eron kabi

mamlakatlardan shakar keltirilgan. XX asrning 40–50-yillari birinchi yarmida O‘zbekistonda to‘rtta shakar zavodlari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1955-yildan boshlab to mustaqillikka qadar yurtimizda shakar ishlab chiqarish to‘xtagan. Bu jarayon mustaqillikdan keyin yana qayta tiklangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Исоқов Б. Оила – жамиятнинг юраги. Услубий қўлланма. – Наманган: Наманган, 2018. – 440 б.
2. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар // Танланган асарлар. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1968. – 488 б.
3. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403–1406 йиллар) / Масъул муҳаррир: Муҳаммад Али; сўзбоши ва изоҳлар муаллифи М. Сафаров; тарж. О. Тоғаев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 264 б.
4. Исмоил Ака. Буюк Темур давлати. – Тошкент: Чўлпон, 1996. – 160 б.
5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома / Таҳрир ҳайъати А.Қаюмов, Ҳ.Султонов, Б.Алимов ва бошқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008. – 288 б.
6. Ўролов А., Сафафров Н. Бобурийлар ва бунёдкорлик. – Самарқанд, 1995. – 40 б.
7. Каримова М.Ж. XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистоннинг савдо алоқалари (Фарғона водийси мисолида). Тарих фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2008. – 141 б.
8. Мадраҳимов З. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари тарихи. – Тошкент: Янги нашр, 2014. – 176 б.
9. Холикулов А.Б. XIX–XX аср бошларида Қашқадарё бекликлари. Тарих фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2011. – 162 б.
10. Ўзбекистон Республикаси: энциклопедия / Бош таҳрир ҳайъати: А.Азизхўжаев ва б. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 712 б.
11. Абдуллаев Т., Абдуллаева В. Қанд-шакар саноати // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ўн икки жилд. Ўнинчи жилд. Шарқ–Қизилқум. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 656 б.